Lagevrioni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma

Mahsulot nomi	Lagevrio kapsulasi
Tarkibi	(Faol modda) Molnupiravir 200mg (1 kapsulada)
Ta'rifi	Olovrang kapsula
Qo'llash usuli/ dozalari	• Kuniga 2 mahal 4ta kapsuladan 5 kun davomida jami 10 marta qabul qiling. • COVID-19 testi javobi pozitiv chiqib alomatlar boshlanganidan so'ng 5 kun ichida dorini qabul qilishni boshlang. • Dorini qabul qilish vaqtida kasalxonaga yotqizilgan bo'lsangiz, dorini qabul qilishni davom ettirish kerak yoki yo'qligi bo'yicha shifokorning xulosasiga rioya qiling.
Samaradorligi/ ta'siri	COVID-19 aniqlangan va og'ir kasallikka o'tish xavfi yuqori bo'lgan yengil va o'rta darajadagi kasalligi bor katta yoshdagi bemorlarni davolash uchun qo'llaniladi. Faqatgina COVID-19ga qarshi boshqa dori vositalaridan foydalana olmaydigan yoki COVID-19ga qarshi boshqa dori vositalari klinik jihatdan mos kelmaydigan bemorlar uchun ishlatilishi mumkin.
Saqlash sharoiti	15°Cdan 30°Cgacha bo'lgan xona haroratida saqlansin.

♣ Lagevrio kapsulasi qanday qabul qilinadi?

Bir vaqtning o'zida 4 ta kapsula qabul qilinadi, 1 kunda 2 mahal 5 kun davomida -> jami 10 marta qabul qilinadi.

- Ovqatlanishga qaramasdan 5 kun davomida jami 10 marta uzluksiz qabul qilib davolash kursini yakunlash muhim.
- Kapsula ochilmasdan yoki maydalamasdan butunligicha yutiladi.
- 12 soat vaqt oralig'i bilan qabul qilish kerak bo'lib, 1-dozani qabul qilish vaqtini kundalik hayotingizdan kelib chiqib esingizda chiqmaydigan qulay vaqtga belgilang. Masalan) ertalab 9:00, / kechki 21:00

♣ Dorini qabul qilishni unutib qo'ysangiz nima qilish kerak?

① Qabul qilishni unutganingizga 10 soatgacha bo'lgan vaqt ichida	② Qabul qilishni unutganingizga 10 soatdan oshgan bo'lsa
- Esingizga tushgan payti darhol qabul qiling va keyingi dozani belgilangan vaqtda qabul qiling. - Undan so'ng rejadagi qabul qilish vaqtiga amal qiling.	- Esdan chiqqan dozani o'tkazib yuborib keyingi rejalashtirilgan vaqtda odatdagi dozani qabul qiling. - Undan so'ng rejadagi qabul qilish vaqtiga amal qiling.
(Bir vaqtning o'zida ikkta dozani qabul qilmang.)	

♣ Lagevrioni qabul qilishda qanday ehtiyot choralari mavjud?

1. Ushbu dorini qo'llash paytida anafilaktik shok kabi giper sezuvchanlik holatlari kuzatilgan. Ushbu dorini qabul qilgandan so'ng giper sezuvchanlik reaktsiya (urtikariya, toshma, nafas qisilishi kabilar) yoki anafilaktik shok alomatlari paydo bo'lsa, darhol dorini qabul qilishni to'xtatib va retsept yozib bergan tibbiyot muassasasiga xabar berib tegishli davolashni boshlash zarur.
2. Ushbu dori homilador ayollarga qo'llanilishi mumkin emas bo'lib tug'ish yoshidagi ayollar homilador emasligiga ishonch hosil qilgandan so'ng ushbu dorini qabul qilishi zarur. Agar homiladorligingizni bilmasdan qabul qilgan bo'lsangiz, qabul qilishni darhol to'xtatgan holda shifokor bilan maslahatlashing. Shuningdek, ma'lumot yoki maslahat olish uchun "MSD Korea Ltd."(02-331-2000) bilan bevosita bog'lanishingiz mumkin.
3. Ushbu dorini qabul qilish paytida homiladorlikni rejalashtirayotgan ayollar qabul qilayotgan paytdaoxirgi va dozani qabul qilgandan so'ng 4 kun davomida, jufti (turmush o'rtog'i) bor erkaklar esa 3 oygacha samarali kontratseptsiyadan foydalanishlari zarur. Undan tashqari, ko'krak emizish davridagi ayollar ushbu dorini qabul qilish davrida oxirgi dozani qabul qilgandan so'ng 4 kungacha emizishni to'xtatishi zarur.
4. Shifokor retseptisiz dorini boshqalarga qabul qildirish juda xavfli bo'lib, bunday harakat uchun tegishli qonunlar asosida jazoga tortilinishi mumkin. Ushbu dorini qabul qilingandan keyin nojo'ya ta'sir kabi alomatlar tufayli dori qabul qilish to'xtatilsa, qolgan dorilarni qaytarish majburiy hisoblanadi.

♣ Qanday nojo‘ya ta’sir bo‘lishi mumkin?

diareya	ko‘ngil aynishi	bosh aylanishi

* Ushbu alomatlardan tashqari boshqa nojo‘ya ta’sirlar ham bo‘lishi mumkin. Ushbu dorini qabul qilgandan so‘ng nojo‘ya ta’sirlar yuzaga kelsa birinchi navbatda farmatsevt yoki uni buyurgan tibbiyot muassasasiga maslahat uchun murojaat qiling. Shuningdek, yuzaga kelgan nojo‘ya ta’sirlar bo‘yicha Koreya Dori-darmonlar Xavfsizlik Nazorati Institutining maslahat raqami(1644-6223)ga murojaat qiling.

- Qo‘shimcha ma’lumot olish uchun Koreya Kasalliklar Nazorat Boshqarmasi veb-sayti(www..kdac.or.kr) yoki poliklinikaga tashrif buyuring.

대한약사회 THE KOREAN PHARMACEUTICAL ASSOCIATION　대한약사회 환자안전약물관리본부　한국의약품안전관리원